

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli kadrlarni tayyorlash  
bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasining ochiq stipendiya tanlovi suhbat  
jarayonida nomzodlarni bilimni  
BAHOLASH USLUBIYOTI VA QOIDALARI**

Inson qadriga hurmat, har bir fuqaroning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, jamiyatda bunyodkorlik va hamkorlik ruhini mustahkamlash, adolatli davlat boshqaruvini qo‘llab-quvvatlash, raqobatbardosh iqtisodiyot va yuqori malakali inson kapitali taraqqiyotini ta‘minlash, shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish – Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridir.

Qisqa vaqt ichida yurtimiz salmoqli yutuqlarga erishdi: mamlakatimizda sog‘lom va barqaror ijtimoiy-siyosiy muhit shakllandi, siyosiy barqarorlik ta‘minlandi, fuqarolarning qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, shuningdek, ularning ijodiy va bunyodkorlik faoliyatini rivojlantirishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-ma‘rifiy sohalarda olib borayotgan keng qamrovli islohotlari, ayniqsa, ilgari surilayotgan strategik qarashlar, g‘oya va tamoyillar mohiyatini anglab yetish har bir O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “El-yurt umidi” stipendiyasiga nomzodlar uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “El-yurt umidi” stipendiyasiga nomzodlar uchun tashkil etilayotgan suhbatning asosiy maqsadi – ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini, ijtimoiy taraqqiyotga erishgan jamiyat g‘oyalarini anglab yetish darajasini hamda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlarga doir nazariy tayyorgarligi, yuksak ma‘naviy-ma‘rifiy saviyasini baholashdan iboratdir.

Uslubiyotning asosiy maqsadi – stipendiya tanlovlarida nomzodlar uchun ochiqlik, shaffoflik va barcha uchun tenglik tamoyillarining amal qilinishini ta‘minlash, o‘rnatilgan tartib-qoidalar, nomzodlar bilimni aniqlash yo‘nalishlariga muvofiq eng munosib nomzodlarni saralab olishdan iborat. Suhbatda nomzodlarning:

- ona Vatanga,
- tanlagan kasbiga bo‘lgan sadoqati,
- ma‘naviy-axloqiy tafakkuri,
- sog‘lom dunyoqarashi,
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetganlik darajasi,
- xorijda ta‘lim olishdan ko‘zlagan maqsadi,

- olingan bilim va ko'nikmalarni O'zbekistonda qo'llay olish salohiyati,
- tanlagan mutaxassisligi bo'yicha bilim va ko'nikmalari aniqlanadi va baholanadi.

Tanlov komissiyasi tomonidan suhbat bosqichida nomzodlarning davlatimizda yangi milliy ruhiyatni shakllantirish, tanlagan kasbiga sadoqatli bo'lishi, sog'lom dunyoqarashga ega ekanligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetganlik darajasi, o'z mutaxassisligini bilish salohiyatini aniqlash, xorijda ta'lim olishdan ko'zlangan maqsadi va olgan ilg'or nazariy bilim va tajribalarini O'zbekistonda amaliyotga qo'llash reja va salohiyatini baholash, ma'naviy iqtidori, keng dunyoqarashi va fidoyiligini aniqlashga alohida e'tibor qaratiladi. Suhbat bosqichida nomzodni xorijda ta'lim olishdan ko'zlangan maqsad va ta'lim olish tugagach olingan bilimlarini O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari haqida yozma ish (motivatsion esse) alohida inobatga olinadi.

Suhbat davlat tilida o'tkaziladi. Nomzodni har tomonlama to'la va to'g'ri baholash maqsadida, Tanlov komissiyasi qaroriga ko'ra, tegishli vazirlik va idoralarning ekspertlari hamda "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali xorijda o'qib qaytib kelgan stipendiatlari suhbatga jalb etiladi. Suhbat jarayoniga jalb etilgan ekspert va stipendiatlar nomzodning bergan javobi bo'yicha o'z fikrini bayon qiladi, biroq, nomzodning bilim va ko'nikmalarini baholashda ishtirok etmaydi.

Tanlov komissiyasi tomonidan suhbat natijalari 100 ballik tizimda baholanadi. Har bir nomzod bilan o'tkaziladigan suhbat jarayoni 30 daqiqagacha davom etadi. Suhbat natijalari Tanlov komissiyasining imtihon qaydnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Har bir nomzod bilan suhbat yakunlangandan so'ng alohida suhbat bayoni tuziladi. Mazkur bayonda nomzodga berilgan savollar ko'rsatilishi lozim. Shuningdek, nomzod suhbat bo'lib o'tgan xonani tark etishidan oldin bayon bilan tanishib chiqishi va uni imzolashi talab etiladi.

Tanlovning suhbat bosqichida nomzodning tegishli bilim va ko'nikmalarini baholashda ishtirok etgan har bir Tanlov komissiyasi a'zosi tomonidan qo'yilgan ballar umumlashtiriladi hamda ularning yig'indisi komissiya a'zolari soniga bo'linadi. Shu tariqa nomzodning suhbat bosqichidagi yakuniy bali aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-77-son Farmoni bilan tasdiqlangan "El-yurt umidi" jamg'armasining istiqbolli kadrlarni xorijda maqsadli tayyorlashga qaratilgan ta'lim dasturlari bo'yicha ochiq stipendiya tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomiga asosan Suhbat uchun belgilangan eng yuqori 100 balldan kamida **61 ball** olgan nomzodlar "**suhbatdan o'tgan**" deb e'tirof etiladi.

**Suhbat o'tkazish yo'nalishlari va uning natijalarini baholash mezonlari:**

T/r	Mezonlar	Umumiy 30 ball		
		0-10 ball	11-20 ball	21-30 ball
1.	Nomzodlarning ona Vatanga va tanlagan kasbiga sadoqati, ma'naviy-axloqiy tafakkuri, sog'lom dunyoqarashi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetganligi darajasi	<p><i>Nomzodning ma'naviy-axloqiy tafakkuri, sog'lom dunyoqarashi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bilishi, ona Vataniga va ilm-fanga sadoqati hamda fidoyiligi.</i></p>	<p><i>Nomzod ma'naviy-axloqiy tafakkur, sog'lom dunyoqarash hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona Vataniga va ilm-fanga sadoqati hamda fidoyiligi to'g'risida umumiy tasavvurga ega.</i></p> <p><i>Ammo qayd etilgan bilimlar va ko'nikmalar yetarli darajada ijobiy, faol va qat'iy emas, o'z Vatani va tanlagan fani rivojiga sodiqligi sustroq.</i></p>	<p><i>Nomzodning ma'naviy-axloqiy tafakkuri, sog'lom dunyoqarash hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bilishi yaxshi, o'z Vataniga va ilm-fanga sadoqatini to'liq namoyon eta oladi hamda keng dunyoqarashga ega.</i></p> <p><i>O'zbekistonn ing Taraqqiyot strategiyasi va davlat siyosatini to'g'ri tasavvur etadi. Faol va qat'iy ijtimoiy pozitsiyaga ega.</i></p> <p><i>Mustaqil fikrlash, tahlil qilish, masalaga ijodiy yondashish fazilatleri mavjud.</i></p>

		<b>Umumiy 30 ball</b>		
		<b>0-10 ball</b>	<b>11-20 ball</b>	<b>21-30 ball</b>
2.	Nomzodning xorijda ta'lim olishdan ko'zlangan maqsad va ta'lim olish tugagach olingan bilimlarini O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari haqida yozma ishi (motivatsion esse)	<i>Xorijda ta'lim olishdan ko'zlangan maqsad va ta'lim olish tugagach olingan bilimlarni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari to'g'risida yetarli ma'lumotlarga ega emas.</i>	<i>Xorijda ta'lim olishdan ko'zlangan maqsad va ta'lim olish tugagach olingan bilimlarni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari bo'yicha umumiy ma'lumotlarga ega, ammo ularning samarasini to'liq yoritib bera olmadi.</i>	<i>Xorijda ta'lim olishdan ko'zlangan maqsad va ta'lim olish tugagach olingan bilimlarni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari bo'yicha ma'lumotlarni to'liq yoritib bera oladi. Kelajakda olingan bilimlarni qo'llash to'g'risida aniq reja va tasavvurga ega.</i>
		<b>Umumiy 40 ball</b>		
		<b>1-13 ball</b>	<b>14-26 ball</b>	<b>27-40 ball</b>
3.	Nomzodning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalari	<i>Mutaxassisligi bo'yicha qisman ma'lumotga ega; intellektual qobiliyatlari o'rtadan past darajada.</i>	<i>Mutaxassisligi haqida umumiy tushunchalarga ega, ammo uning asosiy maqsadi va vazifalarini yoritib bera olmaydi; intellektual qobiliyatlari o'rta darajada.</i>	<i>Mutaxassisligi haqida keng tushunchalarga ega, uning asosiy maqsadi va vazifalarini yoritib bera oladi hamda xorijiy tajribani egallash bo'yicha aniq maqsadlarga ega. Intellektual</i>

				<i>qobiliyatlari o'rtadan yuqori darajada.</i>
--	--	--	--	--

**Tanlovning suhbat bosqichini qayta o'tishga ruxsat etilmaydi.**

*Izoh: Mazkur Uslubiyot 2025-yilgi 2-ochiq stipendiya tanlovi nomzodlarning suhbat jarayonida nomzodlarni bilimini baholash uchun asos bo'lib hisoblanadi.*